

Methodology Of Forming National Values In Karakalpak Literature Lessons At School

Marruza Embergenova

Nukus State Pedagogical Institute, UZ
Faculty of Turkic Languages, Philological Sciences
Candidate, Professor

Abstract

This article considers the issues of instilling national values in the process of teaching Karakalpak literature at school. Ways of enriching the spiritual world of students through literary works, forming patriotism, humanity and national consciousness in them are analyzed. Also, special attention is paid to the importance of interactive methods, the use of folklore materials and interdisciplinary communication. The results of the study allow us to give practical recommendations for increasing the effectiveness of instilling national values in Karakalpak literature lessons.

Keywords: Karakalpak literature, teaching methodology, national values, education, interactive methods, folklore, spiritual education, patriotism, interdisciplinary communication, pedagogical process.

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabda qoraqalpoq adabiyotini o'qitish jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish masalalari ko'rib chiqiladi. Adabiy asarlar orqali o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish, ularda vatanparvarlik, insoniylik va milliy ongini shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, interfaol metodlar, folklor materiallarini qo'llash va fanlararo aloqaning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tiladi. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq adabiyoti darslarida milliy qadriyatlarni singdirishning samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar berishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq adabiyoti, o'qitish metodikasi, milliy qadriyatlar, tarbiya, interfaol metodlar, folklor, ma'naviy tarbiya, vatanparvarlik, fanlararo aloqa, pedagogik jarayon.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida nafaqat ta'lim berish, balki yosh avlodning ma'naviy, madaniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini qaliplestiriv bosh masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabda adabiyot fanini o'qitish - bu faqat estetik tuyg'uni berish emas, balki o'quvchilarning dunyoqarashi, ma'naviy dunyosini boyituvchi kuchli pedagogik vositadir.

Qoraqalpoq adabiyoti xalqimizning tarixiy, turmushi, urf-odati, axloqiy me'yorlari va ma'naviy qarashini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham uni o'qitish jarayonida milliy tuyg'uni singdyuksaltirish - o'quvchilarni vatanparvarlik, ajdodlar merosiga hurmat, insoniy fazilatlar tarbiyalashning asosiy yo'lidir.

Ushbu maqolaning maqsadi - maktabda qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirishning metodik asoslarini aniqlash, samarali usullarini ko'rsatish va pedagogik tajriba asosida tavsiyalar berish.

Adabiyotlarni tahlil qilish

Maktabda qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turlicha ko'rib chiqilgan. Bu sohadagi tadqiqotlar asosan pedagogika, adabiyot o'qitish metodikasi va milliy tarbiya nazariyalari bilan bog'liq.

Birinchi, N. Davletov asarlarida qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitishning metodik asoslari keng bayon etilgan. Muallif o'quvchilarning til va tafakkurini rivojlantirishda adabiy materiallarning ahamiyatini ta'kidlab, darslarda interfaol

metodlarni qo'llashni tavsiya etadi. Biroq bu asarlarda milliy qadriyatlarni singdirishning maxsus mexanizmlari to'liq ochilmagan. Ikkinchidan, K. Mambetov o'zining adabiyot nazariyasi bo'yicha tadqiqotlarida adabiy asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning estetik tarbiyasini takomillashtirishga ahamiyat beradi. Muallif adabiy obrazlar orqali axloqiy sifatlarni shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi, biroq milliy identifikatsiya masalalari chuqurroq o'rganilmagan.

Milliy tarbiya masalalari S. Pirnazarov asarlarida to'laroq yoritilgan. Muallif milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirishning nazariy asoslarini ochib beradi va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish zarurligini asoslaydi. Ammo bu asarda adabiyot darslariga maxsus metodik tavsiyalar cheklangan.

Qoraqalpoq adabiyotining mazmuni va tarbiyaviy imkoniyatlari J.Allamuratovning asarlarida keng bayon etiladi. Muallif xalq adabiyoti va mumtoz asarlardagi ma'naviy qadriyatlarni tahlil qilib, ularning tarbiyaviy ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu mehnat adabiyot orqali milliy ruh bilan tarbiyalashning asosini shakllantiradi.

Shuningdek, I. Karimov va Sh. Mirziyoyevning asarlarida ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlar va yoshlar siyosati masalalariga alohida e'tibor berilgan. Ularda milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish davlat siyosatining bosh yo'nalishlaridan biri ekanligi belgilanadi. Bu fikrlar ta'lim tizimida, ayniqsa, adabiyot darslarida, milliy tarbiyani kuchaytirishni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalalari ham keng o'rganilmoqda. Bu boradagi ishlar o'quvchilarning faolligini oshirish orqali milliy qadriyatlarni chuqurroq singdirish imkonini berishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirishning nazariy va

amaliy asoslari mavjudligini isbotlaydi. Lekin bu masala bo'yicha maxsus kompleks metodika hali to'liq ishlab chiqilmagan. Shu sababli, ushbu maqola ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni to'ldirishga yo'naltirilgan.

Metodlar

Ushbu tadqiqot ishida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil.

Qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi, pedagogika va tarbiya nazariyalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Milliy qadriyat tushunchasi, uning mazmuni va ta'limdagi o'rni tahlil qilindi.

2. Pedagogik nazorat.

Maktab darslari davomida o'quvchilarning badiiy asarlarga munosabati, ularning milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishi kuzatildi.

3. Dars modellashtirish.

Milliy qadriyatlarni singdirishga yo'naltirilgan dars namunalari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

4. So'rovnoma va fikr almashish.

O'quvchi va o'qituvchilar bilan so'rovnoma o'tkazilib, adabiyot darslarining tarbiyaviy ta'siri aniqlandi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish uchun quyidagi samarali yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatdi:

1. Adabiy asarlar orqali milliy qadriyatlarni oshirib borish.

Qoraqalpoq adabiyotidagi eposlar, dostonlar va mumtoz asarlarda ota-onaga hurmat, do'stlik, botirlik, adolat kabi qadriyatlar keng ko'rsatiladi. Ularni tahlil qilish orqali o'quvchilar bu qadriyatlarni chuqur anglay boshlaydilar.

2. Interaktiv metodlarning ta'sirchanligi.

Rolli o'yin, sahnalashtirish, bahs-munozara kabi usullar o'quvchilarning darsga ishtirokini kuchaytirib, milliy qadriyatlarni faoliyat orqali o'rganishga imkon beradi.

3. Folklor materiallaridan foydalanish.

Maqol, topishmoq, ertak va rivoyatlar o'quvchilarning milliy ongini uyg'otishda katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

4. Integrativ yangi metodlar.

Adabiyot darslarini tarix, geografiya, etnografiya fanlari bilan bog'lash o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi va milliy identifikasiyani kuchaytiradi.

Muhokama

Olingan natijalar ko'rsatganidek, qoraqalpoq adabiyotini o'qitish - bu nafaqat ta'lim berish jarayoni, balki u kuchli tarbiyaviy mexanizm hisoblanadi. Lekin amaliyotda har doim ham milliy qadriyatlarni singdirish yetarli darajada amalga oshirilmaydi.

Bu quyidagi sabablar bilan bog'liq:

O'qituvchilarning zamonaviy metodlarni yetarli bilmasligi

Darslarda nazariyaning ustun bo'lib, amaliyotning kamligi.

O'quv materiallarining yetarli darajada yangilanmaganligi

Shu sababli quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Mug'o'qituvchilarni qayta tayyorlash.

Milliy qadriyatlarni singdirish metodikasi bo'yicha ko'proq seminar va treninglar o'tkazish kerak.

2. Interfaol darslarni ko'paytirish.

O'quvchi muhitida mavjud bo'lgan metodlar keng qo'llanilishi lozim.

3. Zamonaviyo'o'quv qo'llanmalarin ishlab shiw.

Multimedia, video, raqamli resurslar bilan boyitilgan materiallar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

4. Milliy muhit yaratish.

Maktabda adabiy kechalar, sahnalashtirishlar, asar tanlovlari o'tkazish orqali milliy ruh kuchaytiriladi.

Xulosa

Qoraqalpoq adabiyotini maktabda o'qitish jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish - yosh avlodni tarbiyalashning eng muhim omillaridan biridir. Adabiyot orqali o'quvchilar o'z xalqining tarixini,

madaniyatini, ma'naviy merosini tushunadi va qadrlaydi.

Tadqiqot ko'rsatganidek, agar o'qitish jarayonida interfaol metodlar, folklor materiallari va integratsion yondashuvlar to'g'ri qo'llanilgan bo'lsa, milliy qadriyatlarni singdirishning samaradorligi ancha yuqori bo'ladi.

Shu bois, adabiyot darslarini yangicha metodik asoslar asosida tashkil etish - davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

N. Davletov. Qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi. - Nukus: Fan, 2015.

K. Mambetov. Adabiyot nazariyasi va o'qitish metodlari. - Toshkent: O'qituvchi, 2012.

S. Pirnazarov. Milliy tarbiya asoslari. - Nukus, 2018.

J. Allamuratov. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. - Nukus: Qoraqalpog'iston, 2010.

I. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon jamiyat qurish yo'lidagi islohotlar. - Toshkent, 2020.

Ембергенова, М., & Атамуратова, Н. (2018). ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ЭКСПЕРИМЕНТ КАК МЕТОД НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ. ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ТРАДИЦИИ, ИННОВАЦИИ, ПОИСКИ, ПЕРСПЕКТИВЫ TEACHER EDUCATION: TRADITION, INNOVATION, PROSPECTING, OUTLOOK, 28.

Prenov, B., & Tarkhanov, N. (2003). Kernel spikes of singular problems.

Kytmanov, A., Prenov, B., & Tarkhanov, N. (1992). The Bertrand-Poincare rearrangement formula for the Bochner-Martinelli integral. Soviet Math.(Iz. VUZ), 11, 29-34.

- Kytmanov, A. M., Prenov, B. B., & Tarkhanov, N. N. (1992). The Poincaré–Bertrand formula for the Martinelli–Bochner integral. *Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii. Matematika*, (11), 29-34.
- Sultanovna, K. M., Ganidjanovna, A. I., & Rajapbayevna, A. N. (2020). The importance and place of women and men in the formation of family institution. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 163-168.
- Baxramovna, A. M., Toxirovich, S. O., & Rajabbayeva, A. N. (2025). YOSHLARNI AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYA QILISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY VA AXLOQIY OMILLARI. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 3(1), 79-84.
- Очилова, С., Джураева, Ш., & Сатторова, С. Н. (2022). Особенности организации внеклассной работы по русскому языку с использованием компьютера. *Science and Education*, 3(5), 1421-1427.
- Bo'Riyeva, G. (2023). Saida Zunnunova she'riyatida sintaktik takrorlar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 186-192.
- Bazarova, S. H. (2021). Pre-processing of audio signals. *Мировая наука*, (1), 6-8.
- Sh, B. S. (2014). *Feminism and Korean Literature*. ЦЕНТР КОРЕЕВЕДЕНИЯ, 29.
- Murodbek, A. (2026). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA URUSH VA TINCHLIK KONSEPTUAL TAHLILINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 2(7), 429-433.
- Murodbek, A. (2026). O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA "URUSH" VA "TINCHLIK" KONSEPTLARI ORQALI INSONIYLIK, EZGULIK VA ADOLAT G'OYALARINING BADIYIFODASI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(4), 348-351.
- Furkatovna, N. D. (2023). Analysis of Definitions of the Concept "Discourse" in Linguistics. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 12, 22-26.
- Sattorqul o'g'li, A. I., & Furqatovna, N. D. (2025). TEACHING SPEECH ACTS AND INTONATION AS MEANS OF EXPRESSING MOTIVATION TO ACTION. *TADQIQOTLAR*, 76(7), 181-183.
- Furkatovna, N. D. (2025). COMMUNICATIVE NORMS IN ENGLISH PHONETICS: FROM STANDARD TO NON-STANDARD VARIETIES. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(9), 10-15.
- Роберт И.В. Теория и методика О'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi. Maktablar uchun qoraqalpoq adabiyoti o'quv dasturi. - Toshkent, 2021.
- Pedagogika / A. Qodirov va boshqalar. - Toshkent: Fan, 2016.
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar / R. Ishmuhamedov. - Toshkent, 2014.
- Pedagogika va Adabiyotshunoslik bo'yicha zamonga mos ilmiy maqolalar va internet manbalari.